

MUSIQALI TEATR AKTYORINING OVOZ IMKONIYATLARI HAMDA ARIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Farhod Farmonov – *“Musiqali teatr aktyorligi” kafedrası dotsent v.b.*
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Tayanch so'zlar: musiqali drama, teatr, qo'shiq, ariya, ovoz, mahorat, ohang, musiqa, kuy, tembr.

Ключевые слова: музыкальная драма, театр, песня, ария, голос, мастерство, мелодия, музыка, мотив, тембр.

Key words: musical drama, theater, song, aria, voice, skill, melody, music, tune, timbre.

Qo'shiq – insonning doimiy hamrohi, ovunchog'i va madadkoridir. Qo'shiq va musiqaning ruhiy qudrati odamzodni hayotga va ezgulikka chorlab kelgan. Soz chalinganda inson tanasidagi jonjunbushga kelgani, goh qo'l, goh oyoq, goh tana harakatlarida yuz, ko'z ifodasida va ayniqsa ovozda o'z aksini topadi. Inson ma'lum bir e'tiqodni, muqaddas g'oyalarni o'ziga, o'zgalarga qudratli so'z, go'zal ohang orqali singdirilgan va undan ta'sirlangan. Ovozlar insonning jismoniy tuzilishiga ham bog'liqdir. Ovozlar hatto og'iz, burun, tanglay kabi odam a'zolari joylashuviga va katta-kichikligiga ham bog'liq. Masalan og'zi nisbatan katta, tanglayi keng, burni uzun bo'lgan xonandalar ovozi o'ta jarangdor, rang-barang tembrli va yuqori pardalarda bemalol ovozi qiynalmay chiqib tushadigandek qobiliyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari bo'y uzunligi, o'pkaning kengligi ham yetuk ovoz sohibi bo'lishida katta ahamiyatga ega. Ovozlarining tozaligi va keng ko'lamliligi tabiiy iqlim sharoitiga ham bog'liq. Masalan, dengiz yoki okean bo'ylarida yashovchi xonandalar ovozi juda jarangdor bo'lib, erkak xonandalarning ovozi juda go'zal, rang-barang tembrga ega bo'ladi. Issiq o'lkalarda, ya'ni ekvatorga yaqin mamlakatlarda yashovchi xonandalarning ovozlari nisbatan quruqroq yoki jarangdorligi nisbatan sustroq bo'lib, ularda tenor va bariton ovozlari ko'plab uchraydi. Ekvatordan shimolga tomon surilib kelavergan sari ovozlar turi pasayib tenor, bariton, bas va yo'g'on-bas kabi ovoz ko'lami va turlari yo'g'onlashib boradi. Shimoliy muz okeaniga yaqinlashilganda bas ovozli xonandalar ko'payadi.

Bundan kelib chiqadiki, xonandalar uchun tabiiy iqlim sharoiti va ularing jismoniy tuzilishi katta ta'sir ko'rsatar ekan. Shuning uchun ham xonandalar boshqa mamlakatlarda gastrol-konsert safarlarida bo'lsalar, ba'zi holatlarda ovoz yurmasligi va hatto bo'g'ilib qolishi holatlari ham uchrab turadi. Lekin ba'zida shunday bo'ladiki, boshqa o'klalarda ovozi ochilib ketishi, hattoki o'z vatanida ham ovozi bunchalik jaranglamaganligi kuzatiladi. Bunday ijrolar

albatta xonandaning kayfiyati, yaxshi hordiq chiqarganligi, toza, sof havodan nafas olishi, hatto qanday taom tanavul qilishiga ham bog'liqdir. Xonanda kayfiyatining tushishi ham ijro uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sahnada ortida ijroga tayyorgarlik ko'rayotgan xonandaning kayfiyati ko'tarinki bo'lishi shart. Chunki ijro qanday kayfiyatda bo'lsa bu eshituvchining kayfiyatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu masalaning yana bir tomoni. Aytaylik xonandaning kayfiyati tushdi, uning shashti, jozibasi yo'qolishi bilan birga ovozda allaqanday bo'g'ilish, charchoqlik va ko'zlagan pardalariga yeta olmasligi ko'p marta kuzatilgan. Shuning uchun ham ustoz san'atkor xonandalar sahnaga chiqishidan oldin kulguli hangomalar, qiziqarli voqealardan aytishib, bir-birining kayfiyatini ko'tarishga harakat qilishadi. O'z navbatida bu ko'tarinki kayfiyat eshituvchi muxlislar ruhiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Agar o'zbek xonandasi tabiiy ovozga va mahoratli kuylash san'atiga ega bo'lsa, shubhasiz u el nazariga tushadi, muvaffaqiyat qozonadi. Hatto kichik diapazon ovozli xonanda ham an'anaviy usulda kuylaganda o'zining shirali, yoqimli ovozi bilan tomoshabin e'tiborini tortishi mumkin. Ayol xonandalar ovozi o'rta pardada jaranglaydi, yuqori va past pardalarda esa ular maxsus maktablarga ega bo'lmasalar, qiynalib kuylaydilar. Shuningdek teatrlarimizda vokal partiyalarni ovoz darajasiga qarab tasnif qilish qoidasi amalga oshirilmaydi. Bir qo'shiqchining o'zi ham soprano ham alt partiyalarida kuylayveradi. Bunda tomoq pardalariga katta kuch sarflanib, zo'riqadi. Bu hol esa tomoshabinda allaqanday noxushlikni uyg'otadi. Shu narsa achinarliki, an'anaviy kuylash yo'li yuzasidan hech qanday ilmiy tadqiqotlar olib borilmaydi, milliy ijrochiligi usullari o'rgatilmaydi va uslublari ishlab chiqilmagan.

Erkaklarning qo'shiq aytish san'ati ayollarga nisbatan ancha mukammallashtirilgan. Chunki xalqimizda Ishkomiy, Guligi, Binigi maktabining namoyandalari, xalq hofizlari san'atining ta'siri hamon saqlanib kelmoqda. Badiiy havaskorlik

to'garagidan chiqib kelayotgan va sahnalarimizda rol o'ynayotgan, konsertlarda kuylayotgan xonandalarimiz o'sha an'analarga amal qilmoqdalar. Shningdek, erkaklar aytadigan qo'shiqlar ham nihoyatda sayqal berilishga muhtoj.

Musiqali spektakldan aktyor "ijodining ko'p holatlari musiqa bilan oldindan qo'yilgan bo'ladi. "Musiqachilar, xonandalar, raqqosalar baxtli odamlar, chunki ularda tempo-ritm muammosi oldindan hal qilingan. Musiqa bizga tuyg'ularni bildiradi, lekin aktyor shu tuyg'ularni xatti-harakatlarga ko'chira bilishi kerak..."

Musiqa bizga tuyg'ular chantiqini ochib beradi, uning yordamida xatti-harakat mantig'i topiladi va mana shu xatti-harakatlarni bajarib, biz ijod paytida musiqa bergan tuyg'ularga qaytamiz" [1.69]

Inson ovozi keng imkoniyatlarga ega. Uni mahorat ila qo'llasangiz nutqingizni jonli qilib, qalbni zabt etishingiz, his-tuyg'ularni uyg'otishingiz va harakatga undashingiz mumkin. Biroq bunga erishish uchun, nutqingizning qayerida ovoz balandligini, tezligini va ohangini o'zgartirish kerakligini shunchaki belgilab qo'yishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Faqat shu belgilarga e'tibor berilsa, ohang qalbaki chiqadi. Bu nutqingizni jonli va rang-barang qilishning o'rniga, tomoshabinlar o'zlarini noqulay his qilishlariga sababchi bo'ladi. Ohangning o'zgarishi yurakdan chiqishi darkor. Ohang – arab tilidan olingan bo'lib, kuy, tovudh degan ma'nolarni anglatadi. Aktyorning ijrosida ohang va so'z bilan ishlash ahamiyatiga egadir.

Ohang o'zgarishi tufayli nutq jonli bo'lib, his-tuyg'ularga ta'sir qiladi va harakatga undaydi. Aktyor nutqi ustida ishlashni ham bilishi muhimdir. Agar aktyor ijro davomida syujetdan kelib chiqib ovoz ohangini o'zgartirmasa, ishonchsizlik paydo bo'ladi. Tabiiyki bu ijro dan tomoshabin zerika boshlaydi. Aktyor matn bilan ishlaganda undagi mantiqiy urg'ularni ham to'g'ri qo'llay olishi zarur. Shu bilan birga voqelikdan kelib chiqib, mohirlik ila ovozning balandligi, tezligi va ohangini o'zgartira olsagina, tomoshabin uni maroq bilan kuzatadi va eshitadi

Ovozdagi ohangga katta e'tibor qaratish lozim. Ohangni syujetga monand o'zgartirib turish lozim. Misol uchun biror musiqchi cholg'u asbobini bir soatdan beri bir xil notani goh balandroq, goh pastroq, goh tezroq, goh sekinroq chalsa, musiqaning baland – pastligi va tezligi o'zgaradi ammo ohangi o'sha-o'sha chiqadi. Bunday musiqa kimga yoqadi? Xuddi shunday biz ham bir xil ohangda gapirsak, ovozimiz yoqimsiz eshitiladi. Shuni aytish joziki, ohangni o'zgartirish

turli tillarda har xil ahamiyatga ega. Xitoy tili kabi ohang o'zgaruvchan bo'lgan tillarda, ohangning o'zgarishi fikrlarda aks etadi. Masalan ovoz balandligi kuchayishi bilan birgalikda ohangning sal ko'tarilishi mantiqiy urg'u qo'yishda qo'llaniladi. Ayrim hollarda ohangni o'zgartirish bilan ko'lam yoki masofani bildirsa bo'ladi. Gapning oxirida ohangning kuchayishi so'roqni bildirishi mumkin. Ba'zi tillarda esa buning uchun ohangni pasaytirish kerak. His-hayajon va quvonch balandroq, qayg'u va tashvish esa pastroq ohang bilan ifodalanadi. Bu kabi his-tuyg'ular qalbni zabt etishga ko'maklashadi. Ularni ifodalashda so'zlarni shunhaki aytish yetarli bo'lmaydi. Ushbu tuyg'ularni siz ham his etayotganingiz ovozingizda aks etishi lozim.

"Kuylovchi aktyorni tarbiyalash jarayonida Stanislavskiy ta'limotini amalga oshirish musiqali teatr arboblari uchun qandaydir noaniq narsa emas. Aktyorlik mahoratining hamma elementlari musiqali teatr tabiatida mujassam. Lekin, Stanislavskiyning operadagi ko'p yillik mehnati hali yetarki darajada o'rganilmagan. Ba'zan, Stanislavskiyning ishini dramatik aktyorning texnik usullarini musiqali teatrga mexanik ravishda o'tkazish deb tushunishadi. Aslida Stanislavskiy musiqali dramaturgiyaning strukturasi, ijodiy ijrochilik qonunlarini o'rgandi va tavsiya qilgan metodini, o'zining amaliy ishi bilan isbotladi". [2.20]

Musiqali teatr aktyorlari faqatgina ovozga suyanib qolmasdan ariya kuylayotganda asardagi qahramonning dardi, ichki kechinmalarini his qilib, o'zidan o'tkazib musiqada gapirsa u ariya bo'ladi, aks holda spektakldagi qo'shiq bo'lib qoladi. Ariyalar – musiqiy asarlar uchun monolog vazifasini o'tashini nazarda tutsak, demak, qahramonlardagi o'y – fikrlarning o'zgarishi va yangi fikrlarning yangi bo'lishi mana shu ariyalarda ro'y berishi kerak. Asarda ariyalar juda ko'p va rang-barang bo'lib, tanlab olgan voqealar tizimidan kelib chiqib, voqealar yakuni yoki cho'qqisida ishlatiladi. Aktyorning o'zidan kelib chiqib unga holatni ochishga yordam beruvchi folklor qo'shiqlar, laparlar, yallalar qo'shish mumkinligini ham esda tutish lozim.

Ariyalar ijrosida aktyor holatidan ajralib qolish hollari azaliy kamchilik hisoblanib, bora-bora bu chorasiz holga aylanayotgan edi. Ariyalarda holatni saqlash uchun ularni to'laligicha, oxirigacha ijro etishni, qo'shiqdek maromiga yetkazib aytish vazifasini o'zgartirib, so'zlarning orasida so'zlarning orasida aktyor hol-ahvolini, kayfiyatini ochuvchi so'z, fikrlarni bemalol ishlata olishga erishish lozim. Bu bilan tomoshabin o'y-hayollari ham holatda saqlanib

qoladi. Aks holda tomoshabin ko‘z oldida ijrodagi holat alohida, qo‘shiq o‘z ma‘nosidan, she‘ridan kelib chiqib bir taraflama ijro alohida bo‘lib qoladi. Ariya so‘zlari qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar ba‘zan aktyor tushgan vaziyatdan kelib chiqqan hol-ahvol davom etib, ariyadan oldinga chiqib-chiqib turishi maqsadga muvofiq ekan. Ariyalar tahlili deganda aynan shu holni nazarda tutish kerak. Aks holda shoir she‘r orqali ochmoqchi bo‘lgan holat chekinib, so‘zning birlamchi ma‘nosi mazmunidan ilgarilab ketadi. Chunki musiqada ritm, takt, ohang, kuy bor. Ular ustuvor bo‘lib ketadigan omillar hisoblanadi. Holatni esa faqat aktyor o‘z vujudi va tanasida ifodalaydi. Unga tashqaridan yordamchilar yo‘q.

Bir so‘z bilan aytganda, musiqiy teatr aktyorlik mahoratini uyg‘unlashtira bilishi va ikkalasini tengma-teng olib borishi shart. Ayrim spektakllarda aktyor yig‘lab turgan holatida ariya kuylashiga to‘g‘ri kelib qoladi. Musiqiy teatr aktyorlari ariya asli monolog, faqat musiqadagi monolog ekanligini unutmashliklari kerak. Koplak spektakllarga bastakor tomonidan ariya va duetlardan tashqari trio, kvartetlar ham yoziladi. O‘zi kuylaydigan joyiga yoki vaqtiliq tushadi yoki kechroq tushib qoladi. Musiqiy teatr aktyori uchun spektakldagi musiqalarning tempo-ritmi bilan aktyorning ichki tempo ritmi hamohang bo‘lishi eng muhim omillardan biri sanaladi. Orkestrdagi musiqani tempi tez bo‘lsa-yu, aktyor

sekinroq qadam tashlasa uning jismi, oyog‘i holatda emasligi ko‘rinib qoladi. Ba‘zi-ba‘zida bo‘lsada uchrab turadigan mana shunday atolar musiqali drama janrining og‘riqli nuqtalaridan biri hisoblanadi. Ko‘zga tashlanib turadigan atolardan yana biri shuki, qandaydir holatda turgan personaj musiqa boshlanishi bilan qaysidir go‘shiqni kuylayotgan xonandaga aylanib qolishidir. Aslida esa aktyordan qahramonga o‘sha holatdagi gapini, dardini musiqada gapirish talab qilinadi holos. Buning uchun esa aktyor shakllanayotgan paytda aktyorlik mahorati bilan qo‘shiqchilik mahoratini baravar egallagan bo‘lishi kerak. Albatta musiqali dramani ham boshga janr singari o‘ziga xosliklari va nozik jihatlari juda kop, lekin rejissyorning vazifasi aktyorni dramaturg bergan voqeaga, holatga moslashtirish, aktyorning vazifasi yesa moslashish hisoblanadi.

Qisqa qilib aytganda so‘z va kuy uyg‘unligiga erishish uchun sahna nutqi elementlaridan maqsad, ichki kechinma, nafas - ovoz, toza adabiy talaffuz, munosabat, ichki kechinmalarni aniq ifoda etish jarayonlarini ijro eta olishi. Kuyli so‘z haqqoniy badiiy ifodalilik vositasi bo‘lishi uchun, kuylovchi aktyor (ijrochi) so‘zlarni nafaqat savodli, aniq va to‘g‘ri talaffuz etmog‘i, balki ,birinchi navbatda, belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun qo‘yilgan xatti-xarakatni bajarishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (Prezident Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzalari). – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 4-avgust.
2. E.Yorbekov, Sh.Muhammadiyev. Aktyorlik mahorati. Toshkent-2018.
3. Tursunboyev S. Teatr tarixi. – T.: Bilim, 2005.
4. I.A. Akbarov, Musiqa lug‘ati. Toshkent G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti – 1987 y.

REZYUME. Ushbu maqolada musiqali teatr aktyorligining o‘ziga xos jihatlari haqida so‘z boradi. Kuylovchi aktyorning ovoz imkoniyatlari, musiqali dramada ariyalarning o‘rni hamda vazifalari haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются особенности актерского мастерства в музыкальном театре. Рассматриваются вокальные возможности поющего актера, его роль и задачи в ариях музыкальных драм.

SUMMARY. This article discusses the specific aspects of musical theater acting. The vocal capabilities of a singing actor and the role and functions of arias in musical drama are discussed.